



UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK VA
PSIXOLOGIK AHAMIYATLARI

G'olibjon Erali o'g'li Xojmatov

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universitetining 4-kurs tarix yo'nalishi
talabasi Golibjonxojmatov1993@gmail.com

*Студент исторического факультета Ташкентского международного
университета финансового управления и технологий*

*Student of the Historical Faculty of Tashkent International University of Financial Management and
Technology*

Anotatsiya: Tezis uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishda psixologik xizmatning ahamiyati va zamonaviy yondashuvlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ta'lim jarayonida shaxsning rivojlanishi, motivatsiyasi, psixologik qo'llab-quvvatlanishi va o'quvchilarning individual ehtiyojlarini qondirish masalalari tadqiq qilinadi. Tezisd psixologik xizmatning yangi metodlari, innovatsion texnologiyalar va psixologik yondashuvlarning ta'lim sifatiga ta'siri ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, uzluksiz ta'lim tizimida psixologik xizmatni samarali tashkil etish va rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Uzluksiz ta'lim, psixologik xizmat, zamonaviy yondashuvlar, ta'lim tizimi, psixologik qo'llab-quvvatlash, motivatsiya, innovatsion texnologiyalar, individual ehtiyojlar, ta'lim sifatini takomillashtirish.

Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimli tashkil etish, bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini oshirish, aholi, ayniqsa yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda[1].

Uzoq yillar davomida tarbiya bolalar ta'limdan bo'sh vaqtida amalga oshiriladigan qo'shimcha yuklamaga – ikkinchi darajali ishga aylanib, uzuq-yuluq jarayon bo'lib kelganligi sir emas.

Tarbiyada yo'l qo'yilgan xatolar asoratlari kundalik hayotda, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokama qilinib, jamoatchilikning haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda. Shunday bir vaziyatda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 2022-yil 3-maydagi PQ 4307 sonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 31- dekabrda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi 1059-sonli qarorining chiqishi bu millat kelajagi, millat ma'naviy taraqqiyoti uchun bir o'ziga hos tarixiy voqelik bo'ldi[2].

Mazkur konsepsiya 8 ta bob va ma'naviy tarbiyaning uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan 61 ta maqsadli va manzilli tadbirlar rejasidan iborat bo'lib, uning amalga



oshirilishi 4 bosqichdan iborat bo'ladi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining asosi milliy tarbiyamiz, Unsur Ul Maoliy Kaykovus, Yusuf Xos Hojib, Abu Rayhon Beruniy, Imom Buxoriy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Abu Nasr Farobiy, Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat kabi ulug'

mutafakkirlarimizning ma'naviy-ilmiy merosiga asoslangan. Ayni vaqtda dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasida sinovdan o'tgan zamonaviy tarbiya texnologiyalaridan foydalanish Konsepsiyaning zamon bilan hamnafasligiga xizmat qiladi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi o'zida dunyo pedagogik tajribasi va yutuqlarini mujassam etganligi alohida ta'kidlandi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining tarbiyaviy tavsiyalari, AQSh tajribasidan shaxs erkinligi, tadbirkorlik, muvaffaqiyatga erishishga intilish, Janubiy Koreyada yoshlar ongiga urf-odatlar, axloqiy ideallarni singdirish, Yaponiyaning "xarakterni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim", Xitoyning yaxshilik, to'g'rilik, poklik, donolik va ishonchlilik kabi fazilatlarni tarbiyalashga qaratilgan pedagogik tajribalari o'rganilgan.

Konsepsiyada O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiytexnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar va uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetentsiyalar, fazilatlar asosida shakllantirish ishiga katta ahamiyat berilgan. Buning uchun oila, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus kasb-hunar, oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik hamkorlikni yangi darajaga ko'tariladi. Zamonaviy dunyoda ta'lim tizimlari tez o'zgaruvchan texnologiyalar, ijtimoiy iqtisodiy sharoitlar va yangi pedagogik talablar ta'sirida doimiy ravishda rivojlanmoqda.

Uzluksiz ta'lim tizimi shaxsning hayot davomida bilim, ko'nikma va malakalarini yangilash va takomillashtirish imkoniyatini ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bugungi kunda jamiyatning eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylangan.

Jahon statistikasi shuni ko'rsatadiki, 2023-yil holatiga ko'ra, global miqyosda uzluksiz ta'lim dasturlaridan foydalanuvchilar soni 1,5 milliarddan ortiqni tashkil etadi va bu ko'rsatkich har yili 10 15% ga o'sib bormoqda (UNESCO, 2023). Bunday dinamik o'sish sharoitida ta'lim jarayonida shaxsning psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlanishi va uning rivojlanishiga yo'naltirilgan yondashuvlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda[3].

Psixologik xizmatlar ta'lim tizimida nafaqat o'quvchilarning akademik yutuqlarini oshirish, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, shuningdek, stress, tashvish va boshqa psixologik muammolarni bartaraf etish orqali ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik qo'llab quvvatlash mavjud bo'lgan ta'lim muassasalarida o'quvchilarning akademik natijalari 20-30% ga yuqori bo'ladi (OECD, 2022).

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlar psixologik xizmatlarning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Masalan, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlili (big data) asosida shaxsning individual ehtiyojlarini aniqlash va ularga moslashtirilgan psixologik yordam ko'rsatish imkoniyatlari kengaymoqda.



Psixologik xizmatlarning raqamlashtirilishi va virtual platformalar orqali taqdim etilishi, ayniqsa, pandemiya davrida katta ahamiyat kasb etdi va bu tendensiya kelajakda ham davom etishi kutilmoqda. Shu bilan birga, uzluksiz ta'lim tizimida psixologik xizmatlarning samaradorligini oshirish uchun ularning metodologik asoslarini takomillashtirish, mutaxassislarning malakasini oshirish va resurslar bilan ta'minlash kabi muammolar hal etilishi kerak. Ushbu tezisda [56

zamonaviy psixologik yondashuvlar va ularning uzluksiz ta'lim tizimiga integratsiyasi masalalari chuqur o'rganiladi, shuningdek, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Tezisning asosiy maqsadi uzluksiz ta'lim tizimida psixologik xizmatlarning rolini oshirish va ularni zamonaviy talablar asosida takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashdan iborat. Tadqiqot natijalari ta'lim sohasidagi mutaxassislarni, psixologlar va siyosatchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Uzluksiz ta'lim tizimi insonning hayot davomida bilim va ko'nikmalarni uzluksiz rivojlantirish jarayonini nazarda tutadi.

Bunday ta'lim tizimini takomillashtirish jarayonida psixologik xizmat muhim o'rin tutadi, chunki insonning bilim olishga bo'lgan intilishi, shaxsiy rivojlanishi va ijtimoiy integratsiyasi psixologik farovonlik bilan chambarchas bog'liq. Ta'lim samaradorligi nafaqat ilg'or pedagogik texnologiyalar, balki o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ehtiyojlarini inobatga olish orqali ham oshiriladi.

Shuning uchun psixologik xizmat ta'lim muassasalarida o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, stress va konfliktlarni boshqarish, ijtimoiy moslashuvni ta'minlash, o'qituvchilar va ota-onalar bilan samarali hamkorlik o'rnatish kabi vazifalarni bajaradi[4]. Bugungi kunda uzluksiz ta'lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirishga qaratilgan bir qator zamonaviy yondashuvlar mavjud.

Ulardan biri individual yondashuv bo'lib, har bir o'quvchining psixologik ehtiyojlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini inobatga olgan holda xizmat ko'rsatishni nazarda tutadi. Bu esa ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tamoyil asosida tashkil etishga yordam beradi.

Ayniqsa, bolalar va o'smirlarning rivojlanish xususiyatlari turlicha bo'lgani uchun ularga individual yondashish muhimdir. Shuningdek, inklyuziv ta'lim tizimi doirasida psixologik xizmat alohida ahamiyat kasb etadi. Maxsus ehtiyojga ega bolalar uchun ta'lim muhitini moslashtirish, ularning teng imkoniyatlarga ega bo'lishini ta'minlashda psixologlarning roli katta.

Bu jarayonda pedagoglar va ota-onalar uchun ham psixologik maslahatlar muhim bo'lib, ularga maxsus bolalar bilan ishlashda metodik va hissiy qo'llab-quvvatlash xizmatlari ko'rsatiladi. Zamonaviy psixologik yondashuvlardan yana biri bu o'quvchilarning emosional intellektini rivojlantirishga qaratilgan yondashuvdir.

Emosional intellekt insonning o'z hissiyotlarini anglash, boshqarish, o'zgalarning his-tuyg'ularini tushunish va ular bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini bildiradi. Bu



ko'nikmalar nafaqat shaxsiy hayotda, balki ta'lim jarayonida ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, o'quvchilarning stressga chidamliligini oshirish, konfliktlarni oldini olish va o'zaro munosabatlarni yaxshilashga xizmat qiladi. Psixologik treninglar, guruhviy mashg'ulotlar va o'yinli metodlar orqali ushbu qobiliyatlar rivojlantiriladi. Axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan birga raqamli psixologik xizmatlar ham keng tarqalmoqda. Masofaviy ta'lim sharoitida psixologik maslahatlar berish, elektron diagnostika vositalaridan foydalanish va onlayn psixologik treninglar tashkil etish ta'lim tizimining ajralmas qismiga aylandi. Raqamli platformalar orqali o'quvchilar, o'qituvchilar va ota-onalar uchun psixologik yordam ko'rsatish imkoniyati kengaymoqda[5].

Bu esa, ayniqsa, uzoq hududlarda yashovchi o'quvchilar va pedagoglar uchun qulaylik yaratadi. Bundan tashqari, uzluksiz ta'lim tizimida kognitiv-bixevioral terapiya (KBT) elementlarini qo'llash samarali usullardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'quvchilarning noxush psixologik holatlaridan xalos bo'lishi, o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishi va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishiga yordam beradi. KBT texnikalari yordamida o'quvchilar o'z fikrlash jarayonlarini nazorat qilish, salbiy fikrlarni ijobiylariga almashtirish va stressni boshqarish ko'nikmalariga ega bo'ladilar[6]. Uzluksiz ta'lim tizimida psixologik xizmatni takomillashtirish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish zarur: birinchidan, ta'lim muassasalarida zamonaviy bilimlarga ega, malakali psixolog kadrlarni tayyorlash va ularning kasbiy rivojlanishiga e'tibor qaratish lozim.

Ikkinchidan, psixologik xizmatni pedagogika, tibbiyot va ijtimoiy soha mutaxassislari bilan integratsiya qilish orqali yanada samarali tizim yaratish kerak. Uchinchidan, o'quvchilarning psixologik holatini doimiy monitoring qilish va diagnostik testlarni joriy etish orqali individual rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash lozim. To'rtinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish, jumladan, sun'iy intellekt asosida psixologik xizmat ko'rsatish va onlayn konsultatsiyalar tizimini rivojlantirishga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Mustaqil fikrlovchi, ijodkor shaxsni tarbiyalash bo'yicha bugungi kunda ta'lim-tarbiya tizimidagi o'rniga kelganda, ayrim an'anaviy dars shaklini saqlab qolgan holda, unga turli-tuman ta'lim oluvchilar faoliyatini faollashtiruvchi, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta'lim metodlari bilan boyitish maqsadga muvofiqdir. Ta'lim oluvchilarni mustaqil fikrlashga undovchi interfaol ta'lim metodlarining pedagogik-psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozarada bahslashuvchilar ko'proq ongli, asosli fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar va mustaqil faoliyat yuritish natijasida ta'lim oluvchi shaxsida ijodkorlik xislatlari shakllanadi. Bunda bahslashuvchilarga miyaga qanday fikr quyilib kelsa, uni tanqidsiz va asoslamay erkin, "tilga nima kelsa", lekin navbatma-navbat aytish imkoniyati beriladi. Bu narsa ko'proq, muammo ancha notanish, savol murakkab yoki noaniq bo'lgan sharoitlarda qo'l keladi. Ya'ni, bunda "erkin assotsiatsiyalar"ga imkon beriladi va oxir oqibat talabaning o'zi muammoning ma'lum ratsional "mag'zni" ajratib oladi.

Shuningdek, dars jarayonini oqilona tashkil etish, ta'lim beruvchi tomonidan ta'lim oluvchilarning qiziqishini orttirib, ularning ta'lim jarayonidagi faolligi muttasil rag'batlantirilib turilishi, o'quv materialini kichik-kichik bo'laklarga bo'lib, ularning



mazmunini ochishda turli xil zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish va ta'lim oluvchilarni amaliy mashqlarni mustaqil bajarishga undash talab etiladi[7].

Xulosa qilib aytganda, uzluksiz ta'lim tizimini takomillashtirishda psixologik xizmatning zamonaviy yondashuvlarini joriy etish ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion psixologik yondashuvlardan foydalanish o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirish, ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash va psixologik farovonligini ta'minlash imkonini beradi. Shu sababli, ta'lim tizimida psixologik xizmatni yanada rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Samad o'g'li, E. H. (2023). Mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etilishi va uzluksiz ta'lim tizmi. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 7(1), 192-197.

2. Yaxshiyev, D. (2023). "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida maxsus maktab-internat oquvchilarini ma'naviy tarbiyalash. Бюллетень педагогов нового Узбекистана, 1(4 Part 2), 14-19.

3. Muhammadnayimovich, Y. D. (2023). Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi" asosida maxsus maktab-internat o' Quvchilarini ma'naviy tarbiyalash. Fan, ta'lim va amaliyotning integratsiyasi, 4(3), 1-10.

4. O'G'LI, S. E. K., & Haqqulovich, T. E. (2024). "uzluksiz ma'naviy tarbiya" konsepsiyasida yoshlar ma'naviyatini rivojlantirish masalalari. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 2(57), 464-468.

5. Akbarjonovna, B. Z. A. B. Z. (2023). Uzluksiz ma'naviy tarbiya ijtimoiy barqarorlik va rivojlanishning muhim omili. Farg'ona davlat universiteti, (5), 99-99.

6. Iminjonova Madina. University of business and science talabasi. UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK- PSIXOLOGIK XIZMATNING ZAMONAVIY YONDOSHUVLARI. 2025.

7. Siddiqova Sanobar Xaydarovna. UZLUKSIZ TA'LIM JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLOVCHI, IJODKOR SHAXSNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK MASALALARI